BO‘LAJAK TARBIYACHILARNING TASVIRIY FAOLIYATGA TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmedova Nazokat Erkinovna
Xalqaro Nordik universiteti katta o‘qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi

Annotatsiya
Mazkur maqolada bo‘lajak tarbiyachilarning tasviriy faoliyat jarayonida tasviriy idrokini rivojlantirishning metodik asoslari yoritilgan.Metodika idrok, tahlil, tasvirlash va modellashtirish bosqichlari asosida tashkil etilib, talabalarda shakl, hajm, nisbat, fazoviy joylashuv hamda dekorativ elementlarni anglash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar bo‘lajak tarbiyachilarning vizual idroki, fazoviy tafakkuri va tasviriy faoliyatga amaliy tayyorgarligini takomillashtirishning samarali vositasi sifatida asoslangan.

Kalit so‘zlar: *Tasviriy idrok, tasviriy faoliyat, raqamli texnologiyalar, 3D model, mobil ilova, xalq amaliy san’ati, vizual idrok, fazoviy tafakkur.*

KIRISH

Raqamli transformatsiya va globallashuv jarayonlari jadallashib borayotgan hozirgi davrda ta’lim tizimi zimmasiga nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, balki ta’lim oluvchilarda borliqni ongli ravishda anglash, predmet va hodisalarning mohiyatini idrok etish hamda ularga nisbatan mas’uliyatli munosabatni qaror toptirish vazifasi ham yuklatilmoqda. Shaxs kamolotining dastlabki bosqichi hisoblangan maktabgacha ta’lim davrida bolalarda tasviriy faoliyatga oid boshlang‘ich tasavvurlar, sensor tajriba, emotsional-bilish faolligi hamda predmetli olamni idrok etish ko‘nikmalari shakllanadi. Shu bois tasviriy faoliyat jarayonida obyektlarni idrok etish masalasi pedagogik va psixologik nuqtai nazardan murakkab tuzilishga ega bo‘lgan, ko‘p komponentli ilmiy-pedagogik muammo sifatida alohida tadqiq etishni talab qiladi.

Natura bilan ishlash predmetni muayyan nuqtai nazar ostida, chizayotgan shaxs ko‘ziga nisbatan joylashuvidan kelib chiqib tasvirlashni talab etadi. Naturadan tasvirlashning ushbu xususiyati mashg‘ulot jarayonidagi idrokning o‘ziga xosligini ifodalaydi. Bu o‘rinda ko‘rish idroki ustivorlik qiladi va yuzada tasvirlangan predmet faqat bir tomonlama qabul qilinadi. Talabalarni predmetni uning sifatlarini jamlagan holda idrok etish qobiliyatiga ega. Lekin predmetni naturaga qarab ifodalash uning makondagi joylashuvi hamda tarkibiy qismlari nisbatini tahlil qila olishni taqoza etadi[1].

M. Bartelning ilmiy qarashlariga ko‘ra, maktabgacha yosh davrida bolalar tomonidan yaratilgan tasvirlar ko‘proq sxematik xarakterga ega bo‘lib, ularda predmetning vizual jihatdan kuzatilgan xususiyatlari emas, balki bola ongida shakllangan umumlashtirilgan tasavvurlar aks etadi. Shu sababli tasviriy faoliyat jarayonida obyektlarni bevosita kuzatish va ularning shakliy xususiyatlarini tahlil qilishga yo‘naltirilgan ta’lim bolalarda vizual idrokning rivojlanishiga xizmat qiladi. Natijada ular predmetlarning real proporsiyasi, konturi, shakli va fazoviy

xususiyatlarini aniqroq anglay boshlaydilar[2]. Muallif bolani “tuzatish” yoki unga “qanday chizish kerakligini” ko‘rsatish kuzatuvchanlikni rivojlantirishni to‘sishi, keyinchalik esa bolada “men chiza olmayman” degan ishonch inqirozini kuchaytirishi mumkinligini ta’kidlaydi. Bunda bola naturani tahlil qilish o‘rniga tayyor andozani yodlaydi. Naturani idrok etishning markazi — kontur va chekkalarni (edges/contours) diqqat bilan kuzatish Bartel kuzatuv rasmida bolaning diqqatini obyektning chekka chiziqlari, konturlari va ularning burchak/egri o‘zgarishlariga qaratish zarurligini aytadi. Shu tariqa bola naturani “nomi” bilan emas, ko‘rinishi bilan idrok etishni o‘rganadi.

R.J. Sternbergning kognitiv psixologiya bo‘yicha tadqiqotlarida vizual idrok va vizual tasavvur o‘rtasida funksional o‘xshashlik mavjudligi ta’kidlanadi. Muallifga ko‘ra, real obyektni idrok etish jarayonida faollashadigan miya hududlari ko‘pincha obyektning obrazli tasavvurini yaratishda ham ishtirok etadi. Bu holat naturani idrok etish jarayonida bolaning ko‘rish orqali qabul qilgan axboroti keyinchalik obrazli fikrlash va tasviriy ifodaga aylanishini ilmiy jihatdan asoslaydi[3]. Muallif vizual idrok jarayonida shakl, rang va fazoviy munosabatlar alohida kodlar orqali qayta ishlanishini qayd etadi. Obyektning hajmi, joylashuvi va chuqurligi haqidagi axborotlar bolaning borliqni real idrok etishiga yordam beradi. Bu xususiyatlar tasviriy faoliyat jarayonida naturadan ishlash orqali yanada aniqlashib, bolaning fazoviy tafakkuri rivojlanishiga xizmat qiladi.

Jill E. Fox va Joohi Leelar tomonidan olib borilgan tadqiqot natijalari kuzatishga asoslangan tasviriy faoliyat bolalarning obyektlarning shakli, rangi, o‘lchami va boshqa xususiyatlarini aniqroq idrok etishiga hamda ma’lumotlarni uzoq muddat saqlab qolishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Mazkur natijalar tasviriy faoliyatning nafaqat badiiy, balki bilish va idrok jarayonlarini rivojlantiruvchi pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlash jarayonida bo‘lajak tarbiyachilarning o‘zlarida ham kuzatish, tahlil qilish va tasviriy idrok ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki tarbiyachining tasviriy faoliyatga oid metodik tayyorgarligi bolalarda ushbu ko‘nikmalarni samarali shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijalari bo‘lajak tarbiyachi-pedagoglarda tasviriy faoliyat jarayonida obyektlarni kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatdi. Mazkur ehtiyojni qondirish hamda tasviriy faoliyatga tayyorgarlikni takomillashtirish maqsadida tajriba-sinovning shakllantiruvchi bosqichida “Magic Shapes” (“Sehrli shakllar”) nomli mobil ilova va unga integratsiyalashgan 3D modellar katalogi ishlab chiqildi.Katalog tarkibiga xalq amaliy san’ati buyumlari asosida yaratilgan 12 ta 3D model kiritilgan bo‘lib, ular QR-kodlar orqali mobil ilovaga bog‘langan. Mazkur resurs bo‘lajak tarbiyachilarning vizual idrokini, fazoviy tafakkurini hamda tasviriy faoliyatga oid amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirildi.

Metodikaning asosini murakkablashib boruvchi matritsalar tamoyili tashkil etadi. Ushbu tamoyilga ko‘ra buyumlar vertikal va gorizontal yo‘nalishda oddiydan murakkablikka qarab joylashtirildi: dastlab yassi, keyinchalik hajmli shakl, undan esa real predmet va uning bezak, naqsh elementlari bosqichma-bosqich idrok etiladi.

Bunday ketma-ketlik bo‘lajak tarbiyachilarda shakl–hajm–fazoviy tuzilish o‘rtasidagi mantiqiy bog‘liqlikni ongli ravishda tushunishga hamda predmetlarni bosqichma bosqich tasvirlash loydan plastilindan yasash uchun xizmat qiladi.

Naturani idrok etish va vizual tahlildan so‘ng metodik jarayon amaliy faoliyat bilan davom ettirilib bo‘lajak tarbiyachilar predmetlarni dastlab bosqichma-bosqich rasmda tasvirlash, yoki loy va plastilindan hajmda yasash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Rasm chizish jarayonida shakl va nisbatlar, loydan yasashda esa hajm, muvozanat va fazoviy joylashuv yanada chuqurroq angladi. Bu jarayon idrok → tahlil → tasvirlash/yasash zanjiri asosida tashkil etilib, tasviriy faoliyatni ushbu turlarini tizimli va samarali o‘qitish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Umataliyev M.A. Talabalarni natyurmort ishlashga o’rgatish jarayonida shakllarni konstruktiv ifodalash malakalarini rivojlantirish. “Science and Education” Scientific Journal. December 2023 / Volume 4 Issue 12. 567-575

2. Bartel M. Teaching Observation Drawing to Young Children (onlayn maqola). – Yangilangan sana: 2013-yil 15-noyabr. — “Introduction”, “When to teach observation drawing”, “Tactile exercise”, “Air drawing exercise”, “Practice seeing”, “Coaching” bo‘limlari.

3. Sternberg, R. J. Cognitive Psychology. — Belmont: Wadsworth Cengage Learning, 2012. — Chapter 7: Mental Images and Visual Perception.

4. Jill E. Fox1, Joohi Lee2. When Children Draw vs When Children Don’t: Exploring the Effects of Observational Drawing in Science. Creative Education 2013. Vol.4, No.7A1, 11-14 Published Online July 2013 in SciRes. 11-14

5. Axmedova, N. E., & Xalikulova, H. A. (2025). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA TASVIRIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, *5*(10), 189-192.

6. Akhmedova, N. (2023). EMBROIDERY IN UZBEKISTAN: A RICH HISTORY AND PRACTICAL CRAFTSMANSHIP. *Science and innovation*, *2*(C5), 81-84.